

**MENEJMENT HAQIDA TUSHUNCHА VA UNING MOHIYATI.  
MENEJMENTNING DAVLAT VA TASHKILOTNING  
RIVOJLANISH YO'LIDAGI MUHIM ROLI**

**Sayfullayeva Nigora Fayzulla qizi**

Denov Tadbirkorlik va Pedagogika instituti talabasi

Email: [nigorasayfullayeva1001@gmail.com](mailto:nigorasayfullayeva1001@gmail.com)

**ANNOTATSIYA**

Ushbu maqolada menejment, menejmentning predmeti va uning mohiyati haqida ma'lumot berilgan. Shuningdek, boshqaruv jarayonida menejer va rahbarlik uslublari haqida ham batafsil ma'lumot keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** Iqtisodiyot, Menejment, menejment predmeti, obyekti, sube'kti va rahbarlik uslubi.

**ABSTRACT**

This article provides information about management, the subject of management and its essence. Also, detailed information is given about manager and leadership styles in the management process.

**Keywords:** Economy, Management, management subject, object, subject and leadership style.

**АННОТАЦИЯ**

В данной статье представлена информация об менеджменте, предмете управления и его сущности. Также дана подробная информация о стилях руководителя и лидерства в процессе управления.

**Ключевые слова:** Экономика, Менеджмент, субъект управления, объект, субъект и стиль руководства.

**KIRISH**

Biz yashayotgan shiddatli zamonda Davlatning rivojlanishi yo'lida har qanday holatni biz hisobga olishimiz zarurdir. Iqtisodiyoti rivojlanayotgan davlat borki albatta u rivojlanmay qolmaydi. "Avval iqtisod-keyin siyosat" deganlaridek, biz avvalo iqtisodiyotda ma'lum bir natijalarga erishibgina keyingi jarayonlarda siyosatga qarasak bo'ladi. Iqtisodiyotga ma'lum bir marraga yetishimiz uchun biz avvalo muhim bir jarayonlarga ko'z tashlasak. Xususan, bozor talablariga javob bera oladigan

mahsulotlarni ishlab chiqarish jarayonida sifatlilik, hamyonboplik va eng avvalo o‘z xaridoriga ega mahsulotni ishlab chiqarilishi bu albatta korxonaga bog‘liq bo‘libgina qolmay, korxonada kechayotgan boshqaruv jarayonlari ham muhim rol o‘ynaydi desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Shubhasiz, har qanday korxona, o‘quv muassasi yoki boshqa tashkilotlarning eng muhim kaliti bu menejment va o‘z ishining ustasi va bilimlisi bo‘lgan menejerlardir.

**Menejment-** (ing.management - boshqaruv, yurgizish, boshqarish, menejment, idora ma’nolarini bildiradi)- boshqaruv fani hisoblanib, u biznesni -jayonlarini tuzishda, odamlarni boshqarishda va korxona foydasini ko‘zlagan holda amalga oshiriladigan har qanday loyihalarni amalga oshirish uchun o‘ziga xos bo‘lgan zarurmi mahurat va kuchni talab qiladigan tanlovdir.

**Menejment predmeti-xo‘jalik yuritishning barcha bosqichlarida boshqarishning qonunlari (qonuniyatları), tamoyillari va munosabatlarini o‘rganishdir.**

**Menejment sub’ekti-** boshqaruvni tashkilotda tashkillashtirishda va uni amalga oshirish jarayonida qatnashayotgan odamlar yoki ulardan iborat guruh nazarda tutiladi.

Menejment obyekti- boshqaruv jarayonining vazifa va maqsadlarni amalga oshirishdagi jarayondir, masalan voqe’liklar yoki jarayonlardir.

Tashkilotlar, muassasalar va boshqa joylarda uning rivojlanishi eng avvalo uning rahbariga bog‘liq bo‘ladi. Shunday ekan biz rahbarlik haqida to‘liqroq ma’lumotga ega bo‘lamiz.

### **Rahbarlar 3 turga bo‘linadi:**

- 1)Avtokratik rahbar
- 2)Liberal rahbar
- 3)Demaokratik rahbar

#### **1)Avtokratik rahbar bular qanday rahablardir**

1. Buyruq berish yo‘li bilan o‘z hukmini o‘tkazadigan
2. Tashkillashtirilgan yoki tashkillashtiriladigan har qanday loyihalarda o‘z xodimlari qarorlarini inobatga olmaydigan
3. O‘zini o‘z bo‘ysunuvchilaridan uzoq tutadigan
4. Xodimlar bilan suhbat jarayonida kayfiyatini jahldor ko‘rinishda namoyon etadigan
5. O‘ziga bino qo‘ygan dimog‘dor
6. U tomonidan beriladigan har qanday buyruqlarni xodimlari tomonidan bajarilishini yaxshi ko‘radigan
7. Xodimlarni rag‘batlantirish o‘rniga jazolashni yoqtiradigan.

**2) Liberal rahbarlar:**

1. O‘z ishiga nisbatan ma’suliyatsiz
2. Yalqov
3. Xodimlariga nisbatan qattiq qo‘l rahbar bo‘lishdan qo‘rqadigan
4. Sust
5. Talabchan bo‘lmaydigan
6. Hech kim bilan munosabatlari buzilishi hohlamaydigan
7. Ma’suliyatni his qilmaydigan irodasiz

**3) Demokratik rahbarlar:**

- Qaror qabul qilish jarayonida xodimlarini eshitadigan va ularni fikrini inobatga oлган holda qaror chiqaradigan.
- Xodimlarga buyruq berish o‘rniga ularni ishontirgan holda ish tutadigan
- Adolatli
- Ma’suliyatli
- Ishchan

Shubxasiz boshqaruv davlat uchun ham eng muhim jarayon hisoblanadi va bu O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan ham tilga olingan.

**“Bizga inson va biznesning og‘irini yengil qiladigan, ularga sifatli xizmat ko‘rsatadigan ixcham va samarali boshqaruv tizimi kerak. Ma’muriy islohotlarni aynan shu maqsadda boshladik. Birinchi bosqichda hukumat va vazirliklar ixcham qilinib, ularning ish uslubi o‘zgartirildi”.**

Shu o‘rinda davlatimiz rahbari jarayonni sifatli va shaffof olib borish uchun OAV ning o‘rni ham muhim ekanligini ta’kidlab o‘tganlar.

**“Jamiyatimizdagи ochiqlik siyosatini izchil davom ettirish maqsadida ommaviy axborot vositalari faoliyatining erkinligi, axborot olish, foydalanish va tarqatishga bo‘lgan huquqlar qat’iy kafolatlanmoqda.**

**Shu bilan birga, so‘z erkinligi bu — mas’uliyat ham degani. Ya’ni, axborot makonida haqqoniylig va xolislik bosh mezon ekanini ham unutmasligimiz zarur”, — dedi davlat rahbari.**

**XULOSA VA TAKLIFLAR**

Xulosa o‘rnida shuni aytishimiz joizki, yuqorida ko‘rib chiqqan barcha ma’lumotlarimiz bu albatta rivojlanish yo‘lida amalga oshiriladigan holatlardir. Biz

o‘zimizning aniq va muvaffaqiyatli yo‘limizni tanlashimiz uchun albatta eng yaxshi, o‘z kasbining bilimdoni bo‘lgan boshqaruvchi va rahbarlarga muhtojmiz. Har qanday rivojlangan va rivojlanayotgan davlat borki uning orqasida kuchli boshqaruv va boshqaruvchi tomonidan ishlab chiqilgan kuchli strategiya va loyihalar orqali amalga oshayotgan kuchli iqtisod turadi.

**Takliflar:**

1) Rahbarlar mavzusida xulosa o‘rnida aytadigan bo‘lsak ularni biz 3 xil toifada ko‘rdik va ular qachonki demokratik rahbar bo‘lishga intilsa va ba’zi holatlarda ish tajribasiga ega bo‘laman xodimlar ustidan avtokratik rahbar tamoyillarini albatta chegaradan chiqmagan holda, rivojlanish yo‘lida qo‘llasagina maqsadga muvofiq bo‘lar edi desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

2) Biz yuqorida davlatimiz rahbari nutqini ham ko‘rib chiqdik, shu o‘rinda bu nutqga qo‘srimcha ravishda taklif beradigan bo‘lsak, qachonki davlat eng asosiy narsa bo‘lmish ta’limga e’tibor qaratsa biz o‘shandagina yetuk bir menejerga va o‘z ishining ustasi bo‘lgan kuchli bilimga ega rahbarlarga ega bo‘lamiz. Ta’lim bu har qanday muammoning kaliti ekanligini anglab yetmog‘imiz zarurdir.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)**

- M.A.Maxkamova, D.X.Nabiiev, “Menejmet”, 2022.
- <https://www.wikipedia.org/>
- <https://www.lex.uz/>
- <https://www.gazeta.uz/oz/>